



TARIX KECHA VA BUGUN

G'ulomjonova Odinaxon

Namangan viloyat tarix va madaniyati davlat muzeyi katta ilmiy hodimi

Annotatsiya: Ushbu tezisda tarixning bugungi kundagi ahamiyati tarixning yutuq va kamchiliklari shuningdek, tarixning kechagi hamda bugungi holati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tarix, millat, taraqqiyot, ajdod, kelajak, o'tmish, bugun, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi

"Tarixiy xotirasiz -kelajak yo'q"- degan edilar muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov. Darhaqiqat, kelajakni qanday qurish bu barchaning o'z qo'lida. O'z tarixini bilgan, millat tarixini bilgan kishi o'z kelajagini chiroyli bunyod etishi mumkin. Tarixdagi bobolarimizdan faxrlanish, ulardan o'rnak olish yoki ularning qilgan xatolarini takrorlamaslik hammaning o'z qo'lida.

Kishining 1 soniya oldingi hayoti ham tarixdir. Tarixda sodir bo'lgan shuhrtli voqealar yoki mudhish voqealarning barchasini 5 sinfdan to 11-sinf tarix fani darsliklaridan o'quvchilar o'rganishlari mumkin.

Taraqqiy etgan millatlarning o'z tarixini yaxshi bilishi va qadrlashi, tarixiy yodgorlik va obidalarni e'zozlashi, ko'z qorachig'idek asrashi hamma vaqt zaruriy omil bo'lib kelgan. Bu eng avvalo, tarix insoniyat paydo bo'lganidan to hozirgacha davom etib kelayotgan ijtimoiy jarayon oynasi ekanligi bilan bog'liqdir. Ikkinchidan esa, butun insoniyat shu tarixga qarab, o'z o'tmishi va borlig'ini anglaydi, kelajak rejalarini belgilaydi. Tarix insoniyatning buyuk xotirasi hamdir.

Unda ajdodlarimizning ma'naviyati, madaniyati va amalga oshirgan ishlari mujassam. Tarixsiz kelajakka qadam bosib bo'lmaydi. Chunki undan olinadigan ma'lumotlar, chiqariladigan xulosalar va urushlarda qozonilgan g'alabalarga nisbatan faxr tuyg'ulari nafaqat yoshlar uchun, balki butun insoniyat uchun kelajakka qo'yiluvchi ishonchli qadam manbai bo'ladi.

Ushbu fikrni tarix fani rivojiga salmoqli hissa qo'shgan Abdurauf Fitratning "Tarix millatimizning, o'tmishimizning taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o'rganadigan fandir" degan so'zlari bilan yanada asoslash mumkin.

Davlatimiz tashabbusi bilan tariximizga e'tibor davlat darajasidagi siyosat darajasiga ko'tarildi. Bu siyosatning asosiy xususiyati shundaki, u avvalo ma'naviy merosga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida bir qancha qadimiy shaharlarning yubileylari ko'tarinki ruhda o'tkazildi. "Avesto"ning 2700 yilligi, Xorazm Ma'mun akademiyasining ming yilligi ham tantanali ravishda nishonlandi.

Tariximizda o'chmas iz qoldirgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi jasur davlat arboblari, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur, Alisher Navoiy kabi buyuklar, al-Xorazmiy, al-Farg'oni, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi donishmandlar, islom falsafasini teran anglab,



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

targ'ib qilgan Imom al-Buxoriy, at-Termiziy singari ulug' zotlar va boshqa-boshqa allomalarning faoliyati keng va xolis yoritildi.

Ularning hayoti, turmush tarzi xalqimizda g'urur tuyg'ularini uyg'otdi. Bu umumxalq miqyosida o'tkazilgan tantanalar tariximizning, madaniyatimizning, ma'naviyatimizning nechog'lik boyligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida yurtimiz tarixining konsepsiyasi hamda o'zbek xalqining etnogenezi o'rganish dasturi ishlab chiqildi. U arxeologiya, antropologiya, etnografiya, toponimika, tilshunoslik, o'lkashunoslik kabi fanlar xulosalariga asoslangan. Bu konsepsiya aniq topilmalar, chuqur tadqiqotlar, qadimiy yozma manbalar, boshqa ashyoviy va ma'naviy dalillarga tayangan holda tuzilgan.

Shu asnoda maktablar, litseylar va kollejlarda uchun O'zbekiston tarixi bo'yicha arzigulik darsliklar yaratildi. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanmalar nashr etilmoqda. Bular orasida professorlar R. Murtazoyeva, A. Sagdullayev, V. Genshtel tahriri ostida chop etilgan o'quv qo'llanmalari masalani to'laroq yoritib bergan.

2006-yili chop etilgan "O'zbekiston tarixi" kitobi oliy o'quv yurtlarining barcha bakalavr yo'nalishlari uchun darslik sifatida yaratilgan asardir. Uning mualliflari — tajribali domlalar O. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burhonovlar ko'pdan beri kutilgan darslikni yaratib, muhim va zarur ishni amalga oshirganlar. Shubhasiz, bu kitob (uning nashr bosma hajmi 32,5 bet) ko'pchilik talabalarga o'tmishimizni to'laroq o'rganishda qo'l keladi.

Hozirgi vaqtda tarixchi mutaxassislarni tayyorlash, maktablarda tarix fani o'qitilish metodlarini takomillashtirishda, tarix fanining turli tadqiqot uslublari va yondashuvlarini qo'llash va o'quvchilarning tarixiy tadqiqotlar jarayonida to'g'ri va ilmiy, tarixiylikka asoslangan xulosalarni chiqarishga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Chunki maktab, kollej, texnikumlar va oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan milliy tariximizga oid mavzular va ma'lumotlar asosan shunchaki axborot beruvchi va tarixiy ma'lumotlar jamlanmasidangina iborat bo'lib qoldi. Hamda ko'pchilik o'quvchilar tarixdan saboq olish, xulosa chiqarish o'rniga, tarixni yodlab chiqyapti deb o'ylayman. Vaholanki, tarix o'zi yoshlarga nima beradi, uni o'rganishdan maqsad nima? Bu savolga javobni tarix darsliklarini o'zidan ham topishimiz mumkin.

Ya'ni dunyodagi zo'ravon kuchlar qaysi bir xalqni o'ziga tobe qilmoqchi, bo'sundirmoqchi bo'lsa, avvalo uning tilidan, tarixidan va ma'naviyatidan judo qilishgan. Shu sababli ham birovga tobe bo'lmaslik uchun, birinchi navbatda o'z tariximizni puxta o'rganish talab etiladi. Ammo bugungi kunda o'quvchilarning ko'p qismi buni tushunmasligi, anglamasligi mumkin.

Hozir barcha bosqichdagi ta'lim tizimida yoshlarning o'z vatani tarixini o'rganish uchun o'quv reja va dasturlari ishlab chiqilgan, dars soatlari ajratilgan, yetarlicha adabiyotlar bilan ta'minlangan. Lekin, afsuki tarix fanining strategik ahamiyatini zarur darajada to'g'ri baholamagan holda, darslar yuzaki tashkil qilinmoqda.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Aksariyat o'quvchilar o'qigan mavzuyi bo'yicha mulohaza yuritib, yakuniy xulosa chiqarish o'rniga, tarixni mukammal qilib yodlayapti deb o'ylayman. Natijada tarixni o'rganuvchilarda tarix bu yil va sanalarni yodlash, degan tushuncha paydo bo'lyapti.

Hozirgi zamon tarix fani alohida bo'limlar va sohalaridan tashkil topgan bilimlar majmuidir. Ixtisoslashish darajasiga ko'ra, ularni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni jamiyatning (jahon tarixi) butun va alohida tomonlarini o'rganuvchi bo'lim va sohalar tashkil qiladi.

Insoniyat tarixining ayrim hodisalari alohida o'rganiladi. Jahon tarixi ibtidoiy jamiyat tarixi, o'rta asrlar tarixi, yangi va eng yangi tarixga bo'linadi. Hududiy-geografik tamoyilga ko'ra, tarixan bir-biri bilan bog'liq yirik regionlar (Yevropa va dunyoning boshqa qismlari, Qadimgi Sharq, O'rta Osiyoning ba'zi regionlari) va alohida mamlakatlar hamda xalqlarga ajratiladi.

Kompleks muammolarni tadqiq qilish bir guruh mamlakat va xalqlar tarixida ro'y bergan bosqichiy davrlarni va hodisalarni (Uyg'onish davri, Reformatsiya tarixi va boshqalar) o'rganish zaruratidan kelib chiqadi. Jahon tarixiga global yondashuv bilan bir qatorda mikro tarix (shahar va qishloqlar, alohida shaxslar, kundalik maishiy turmush) ham o'rganiladi. Tarixning alohida tomonlarini o'rganish tarix fanining alohida sohalarini ajratishni taqozo qildi (mas., harbiy tarix, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, din, fan, xotin-qizlar tarixi va tender tadqiqotlari, san'at, intellektual, madaniyat, diplomatiya tarixi va boshqalar).

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, tarix bizning bugungi kunimizni, kelajagimizni, yanada yorituvchi mash'aladir. Shunday ekan, tarixsiz kelajakni tasavvur qilib bo'lmaydi. Tarixiy bilimlar va undan to'g'ri xulosa chiqaribgina o'z porloq kelajagimizni barpo eta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova D.A. "Tarix fani metodologiyasi" T: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2018y. -324 b.
2. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. — T.: Ma'naviyat. 2008.
3. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. — T., 2013
4. Tarix, mustaqillik, milliy g'oya. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. — T.: Akademiya, 2001.
5. A. Akmaljonov "TARIX FANINING KENG TARMOQLARI VA TUZILMALARI" Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19 th May - 2024 ISSN: 2835-3730